

## XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBI

*Xurramov Davlatbek*

*Termiz davlat universiteti*

*[davlatbekxurramov2004@gmail.com](mailto:davlatbekxurramov2004@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'larini aylanmasi ya'ni kirim va chiqim qilinishini va bank orqali hujjatlar hisobi qanday yuritilishini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Buxgalteriya hisobi, pul mablag'lari, kirim va chiqim kassa, valyuta, yo'ldagi pullar

### **Kirish:**

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-fevralda Respublikamizda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4611-son Qaror imzolandi. Qabul qilingan hujjat tadbirkorlik sub'ektlarini MHXSga o'tishga tayyorgalik ko'rish va muvofiqlashtirish jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan pul mablag'lari va pul ekvivalentlari tushunchasi va hisobini xalqaro hisob talablariga asosan takomillashtirishni taqazo etadi. Korxonalarining to'lovga layoqatliligini aniqlashda albatta pul mablag'lari ekvivalentlarini to'g'ri turkumlanishi, hisobining to'g'ri yuritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pul ekvivalentlari to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansi (moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot) hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda yuritiladi. Taraqqiyotning yuqori pog'onasiga kutarilish esa har doim iqtisodiyot fanlarining, chunonchi buxgalteriya hisobining rivojlanishi ham belgilab bergan va ular ham ta'sir etgan.

### **Asosiy qism:**

Pul mablag'lari hisobi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining beshinchi bo'limidagi, hisob-kitoblar esa oltinchi bo'limidagi schyotlarda yuritiladi. Pul mablag'lariva hisob-kitoblar hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: -pul mablag'lariva hisob-kitob maomalarini o'zvaqtida va to'g'ri hujjatlashtirish; -korxonada kassasidagi naqd pul mablag'lariva qimmatli qog'ozlarni butligini operativ, kundalik nazorat qilish, pul mablag'larini qat'iy belgilangan maqsadga sarflanishini, byudjet, banklar, xodimlar va boshqa muassasalar bilan to'g'riva o'zvaqtida hisoblashishlarni, mol sotib oluvchi va mol yuboruvchilar bilan shartnomada belgilangan hisoblashish shakllariga amal qilishni nazorat qilish; -qarzlarni qaytarish muddatidan o'tkazib yubormslik maqsadida debitorlar va kreditorlar bilan olib borildigan hisob-kitoblarni o'zvaqtida solishtirish. Bozor iqtisodi sharoitida pul mablag'iniva uning

ekvivalentlarini saqlash, kirimi va sarfini ustidan qattiq va tizimli nazorat o'rnatish lozim. Chunki ular tez harakat qiladigan va ugirlanishi nisbatan oson bo'lgan mablag'lardir.

Pul mablag'larini to'lash, naqd pulga amalga oshiriladigan muomalalarni aks ettirish va kassadagi qoldiqlarni taqqoslash bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash. Bu tartib o'g'irlikni kalbaki hujjatlar bilan berkitish va o'g'irlik tavakalchiligini kamaytiradi;

-pul mablag'larining bankdagi schyotlarga tushishidan boshlab, doimiy va tuxtovsiz pul olish uchun har bir alohida xodimga majburiyatini belgilash. Bu nazorat o'znavbatida quyidagilarni talab etadi:

1.Kechiktirilmagan hisoblashishlar, ya'ni hisoblashishlarni belgilangan vaqtda amalga oshirish;

2.Kechiktirilmagan yozuvlar, muomala yozuvlarini o'zvaqtida amalga oshirish;

3.Olingan barcha pul mablag'larini o'zvaqtida deponentlash, ya'ni nitegishli maqsadlar yoki majburiyatlarga yo'naltirish. Pul mablag'larining boshqaruv funksiyasini bajarish bo'yicha tuxtovsiz nazoratni ta'minlashva yozuvlarni yuritish. Bu nazorat, kundalik va kassadagi naqd pulning kutilmagan hisobi, ichki taftish va kundalik olingan pul mablag'lari, to'lovlarva qoldiqning kundalik hisobotini o'zichiga oladi. Pul mablag'larining sarfini na zorat qilish tartibi quyidagilardir:Ko'pchilik kompaniya va firmalar juda ko'premitentlarga pul to'laydilar.

Naqd pullar va qimmatbaho qog'ozlarni saqlash uchun har bir korxonada, muassasa va tashkilotlarda kassa mavjuddir. Kassa muomalalari «O'zbekiston Respublikasida kassa muomalalarini amalga oshirish tartibi haqida» gi Markaziy bankning ko'rsatmasigaasosan amalga oshiriladi. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektkassa (gazna) uchun maxsus jihozlangan xona yoki xonalarni ajratishi lozim. Ushbu xonalar temir eshik, temir panjaralar, ogohlantiruvchi jihozlar, temir seyf va temir shkaflarga ega bo'lishi, pul berish tuynukchalari va xodimlar olgan pulini hisoblaydigan stol va stullar o'rnatilgankichik xonaga ega bo'lishilozim. Kassada doimiy saqlanadigan naqd pulning miqdori bank bilan kelishilgan holda belgilanadi. Ma'lum muomalalar (mehnat haqi, nafaqa...) uchun olinadigan naqd pullar 3 kungacha (olingan kundan boshlab) saqlanishi mumkin. Kassa muomalalarini amalga oshirish jarayonida quyidagi hujjatlar tuziladi: -«Kassaning kirim orderi» - kassaga naqd pul kirim qilinayotganda. Unga bosh hisobchi imzo chekadi va pattasi qirqib olinadi; - «Kassaning chiqim orderi» - kassadagi naqd pullarning chiqishiga asos bo'ladi.

Naqd pullarning harakatini hisobga olish 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari» va 5020-«Xorij valyutasidagi pul mablag'lari» nomli sintetik, aktiv schyotlarda amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning debetida oy boshidagi qoldiq, oborotida oy davomidagi naqd pulning kirimi, kredit oborotida esa naqd pullarning oy davomidagi chiqimi -sarfi hisobga olib boriladi.

Kassa muomalalarini yuritish Markaziy bank boshqarmasining 1998 yil 24 yanvardagi 376 - sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxslar tomonidan kassa muomalalarini yuritish qoidalari» bilan tartibga solinadi. Kassada kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan belgilangan limit doirasida qoldiq bo'lishim mumkin. Agar korxonaning valyuta schyotida mablag'lar bo'lsa, naqd valyutadan foydalanish zaruriyati vujudga kelishi mumkin. Naqd valyutani hisobga olish uchun alohida 5020 «Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» schyoti ochilgan. Naqd xorijiy valyuta harakatining hisobi kassa daftarida yuritiladi. Bu daftarda xorijiy valyuta muomalalarining hajmiga qarab taxmindan bir necha betlar ajratiladi. Bankdan naqd xorijiy valyutani olinishi quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi: D-t 5020-«Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» K-t 5210-«Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» Safar xarajatlari uchun hisobdor shaxslarga berilsa: D-t 4220-«Xizmat safarlar uchun berilgan bo'naklar» K-t 5020-«Chet el valyutasidagi pul mablag'lari».

Kassa operatsiyalarini aks ettiruvchi buxgalteriya o'tkazmalari: Bankdagi hisobraqamdan pul mablag'lari kassaga kelib tushdi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar va shu kabilarni berish uchun):

Debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Kredit 5110-«Hisob-kitob schyoti»

Hisobdor shaxslar tomonidan ishlatilmagan oldin olingan bo'naklarning qaytarilishi aks ettirildi:

Debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Kredit 4200 «Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar»

Mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning naqd pulga sotilishi aks ettirildi:

Debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar» 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar»

Pul mablag'larining kassadan bankdagi hisob-kitob schyotiga o'tkazilishi aks ettirildi:

Debet 5110-«Hisob-kitob schyoti»

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Hisobdor summalarning berilishi aks ettirildi:

Debet 4200 «Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Hisoblangan mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (mukofot va shu kabilarni berilishi aks ettirildi:

Debet 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar»

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari»

Puli berilgan holda sotilgan tovarlarning qaytarib olinishi aks ettirildi:

Debet 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi»



Kredit 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari"

Valyuta schyotlari

5210-"Mamlakat ichida valyuta schyotlari";

5220-"Chet eldagi valyuta schyotlari";

5210-«Mamlakat ichidagi valyuta schyotlar»ni kredit oboroti 2/1 -jurnal-orderida aks ettiriladi. Bu schyotning debet

oboroti 2/1 qaydnomaini yuritish bilan nazorat qilinadi. Valyuta schyoti bo'yichaanalitik hisob kartochkalarda valyutalarning nomlari bo'yichayuritiladi.

Valyutani majburiy sotish to'g'risidagi topshiriqqa sotilgan valyutaning so'mdagi ekvivalentini qoplash va uni korxonalarining hisob-kitob schotiga o'tkazishni ta'minlovchi to'lov topshirig'i ilova qilinadi. Shunday qilib, chet el valyutasidagi barcha tushumlar 2 qismdan iborat bo'ladi: chet el valyutasining 85 foizini joriy valyuta schotiga, qolgan 15 foizini esa bankdagi hisob-kitob schotiga so'mdagi ekvivalenti bo'yicha o'tkazib beriladi. So'mdagi ekvivalent bu - O'zbekiston Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan kurslar bo'yicha chet el valyutasini qayta hisoblashdir. Bunday katta hisoblash har haftada bir marta O'zbekiston Markaziy banki e'lon qilgan kurslar bo'yicha amalga oshiriladi.

5700 "Yo'ldagi jo'natmalar" schoti yo'ldagi milliy va xorijiy valyutalardagi pul mablag'lari (o'tkazmalarining) ya'ni korxonaning hisob-kitob schoti yoki boshqa schotida qayd etish uchun banklar kassalarida omonat kassalarga yoki pochta bo'linmalari kassalariga kiritilgan, lekin hozircha belgilangan maqsad bo'yicha qayd etilmagan pul summalari (asosan savdo tushumi)ning mavjudligi va harakati haqidagi axborotni umumlashtirish uchun mo'ljallangan. Bank muassasalari, omonat kassalari pochta bo'linmalarining kvitansiyalari tushumni bank inkassatorlariga topshirish uchun ilova qilinadigan qaydnomalar nusxalari va shu kabilar summalarni (masalan, tushumni topshirishda) "Yo'ldagi jo'natmalar" schoti bo'yicha hisobga olish uchun asos buladi. Xorijiy valyutalardagi pul mablag'lari (o'tkazmalarining) harakati 57 "Yo'ldagi jo'natmalar" schotida alohida tarzda hisobga olinadi. Shunday qilib, pul mablag'larini yuqorida ko'rsatilgan tartibda taftish va nazorat olib borish korxonaning pul mablag'larining samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, korxonaga to'g'risida katta hajmda ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvolini xizmat va bozor faolligini tahlil qilish mumkin. "Pul oqimlari to'g'risida hisobot"da korxonaga moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar pul mablag'lari nuqtai-nazaridan aks ettiriladi:

- Xo'jalik faoliyatida olingan pullar harakati;
- olingan hamda to'langan foizlar va dividendlar;
- to'langan soliqlar;
- olingan va qo'yilgan investitsiyalar;

- aksiyalar va zayomlar, shuningdek ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl "Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot" moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi "Korxonona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Korxonona kassasiga kelib tushgan naqd pul tushumi har kuni to'liq bankka topshirilishi shart - inkassator xizmati orqali yoki korxononaning o'zi uni mustaqil ravishda banklarning kunduzgi va kechki kassalariga topshiradi. Kassir kassa kirim va chiqim orderlari asosida kassa daftarini yuritadi, unda tashkilotning barcha kelib tushgan va berilgan naqd pullari hisobga olinadi. Kassa daftaridagi varaqlar oldindan raqamlangan, tikilgan va tashkilot muhri bilan muhrlangan (korxononada muhr mavjud bo'lgan taqdirda) bo'lishi lozim. So'nggi varaqda varaqlar soni, rasmiylashtirilgan sana ko'rsatiladi va rahbar hamda bosh buxgalter imzosi qo'yiladi. Kassa daftaridagi yozuvlar qoraqog'oz vositasida 2 nusxada yoziladi. Bunda varaqlarning birinchi nusxalari kassa daftarida qoladi, qirqiladigan ikkinchi nusxasi esa kassirning hisoboti hisoblanadi. Varaqlarning ikkala nusxasi bir xil raqam bilan raqamlanadi.

#### **Xulosa:**

Korxononaning iqtisodiy samaradorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va miqdorini oshirish va ularning yuqori baholarga sotish balki mavjud ishlab chiqarish resurslaridagi eng avvalo pul mablag'laridagi samarali foydalanish hisobiga ham erishish mumkin. Buning uchun esa korxononalaridagi pul mablag'larining harakati ularning kelib tushishi va sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish alohida ahamiyatga egadir. Ushbu vazifa esa eng avvalo pul mablag'larini hisobga oluvchi buxgalteriya hisobining schotlari, ularning subschotlari va analitik schotlarida shakllanadigan ma'lumotlarni korxononani boshqarish uchun zaruriyligi nuqtainazardan yig'ish qayta ishlash va saqlashni tashkil qilish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan qaraganda pul mablag'larining amaldagi hisob tizimini takomillashtirish zaruriyati vujudga kelmoqda. Chunki amaldagi hisob tizimi real iqtisodiyot davrida bo'lib hozirgi bozor munosabatlari talablariga deyarli to'la javob bermaydi. Bilamizki hozirgi vaqtda to'laqonli halqaro standartlarga o'tmaganmiz pul mablag'lari hisobini yuritishda ham xalqaro standartlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi chunki korxonamizga chet el investorlarini jalb qilmoqchi bo'lsak, biz xalqaro standartlar andozasiga asoslanib tayyorlagan hisobotlarimiz ular uchun ishonarli bo'ladi.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 4.11.1998 yilda qayd etilgan, №519 1994 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 2016 yil 13 aprel.
4. Buxgalteriya hisobi darslik/ A.Karimov, E.QURbanbayev, A.Jumanazarov-2019
5. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ,darslik manba muallifi- N.Toshmamatov 21-sentabr, 2021
6. <https://lex.uz/acts/-821517> 1998-yil, 24-yanvar, 364-son
7. <https://www.collegesidekick.com/> pul mablag'lari hisobi